

2023-yil – Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili

IJDODIY PARVOZ



O‘zbekiston davlat
san‘at
va madaniyat
institutining
ma‘naviy-ma‘rifiy,
ilmiy, ijtimoiy
gazetasi

2023-yil iyun № 6 (121) ✓ dsmi.uz ✓ nashriyot@dsmi.uz ✉ t.me/dsmi_uz



Eldor SHERMANOV,
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat
instituti rektori v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)



SAYLOV – DEMOKRATIYA KO‘ZGUSI

2023-yil mamlakatimiz tarixida demokratik yangilanish va o‘zgarishlar davri sifatida joy olmoqda. Boisi, ilk bor referendum yo‘li bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Albatta, bugungi ko‘p millatli xalqimizning mamlakatimiz taraqqiyoti yo‘lidagi bunday jipsligi so‘nggi yillarda jamiyatda amalga oshirilgan so‘z erkinligi va ochiqlik kabi islohotlarning yaqqol namunasidir. Yangi Konstitutsiyamizda belgilangan yangi normalarning hayotimizga to‘la-to‘kis tatbiq etilishi boshlangan islohotlarni yangi kuch va shijoat bilan davom ettirishni taqozo etadi. Shu bois joriy yil 8-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar, sud va ijro etuvchi hokimiyyat organlari rahbarlari hamda jamoatchilik faollari bilan o‘tkazgan muloqotida qonunchilik va yangi tahrirdagi Konstitutsiyada amaldagi Prezidentlik vakolatini 2026-yilgacha amalga oshirib, undan keyin yana ikki marta yetti yillik muddatga saylanish imkoniyati berilganligiga qaramasdan, asosiy qonunimizdagi yangilanishlar orqali hokimiyatning barcha bo‘g‘inlari isloh qilinib, ular o‘rtasidagi munosabat va muvozanat jiddiy o‘zgarayotganligi hamda Prezident, parlament, hukumat, vazirlar, hokimlar oldiga kechiktirib

bo‘lmaydigan yangi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni qo‘yayotganligini hisobga olib, muddatidan ilgari Prezidentlik saylovini o‘tkazish tashabbusini bildirdi.

Shubhasiz, muddatidan ilgari o‘tkazilayotgan Prezidentlik saylovi mamlakatimizni yangilangan Konstitutsiya qoidalari asosida barqaror rivojlantirish yo‘nalishlarini xalqimiz bilan bamaslahat belgilab olish uchun sharoit yaratadi. Hammamizga ma’lum, demokratik jamiyatning bosh tamoyili saylov, tanlov erkinligi hisoblanadi. Zamonaviy demokratik jamiyat hayoti har bir fuqaroning davlat va jamiyat hayotiga oid eng muhim masalalarni hal etishda ishtirok etish va saylovlar orqali ertangi kunini mustaqil va erkin tarzda belgilash imkoniyatiga ega ekanligiga asoslanadi.

Ilg‘or demokratik davlatlarda bo‘lgani kabi, O‘zbekistonda ham saylovlar demokratik jamiyatni qurish yo‘lida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mustaqillikning ilk yillardanoq yurtimizda Prezident va parlament, mahalliy vakillik organlari saylovlari muntazam ravishda o‘tkazib kelinadi.

Go‘zal kunlar
kelishini kutma.
Unga tomon
bormog‘ingni
unutma.

JALOLIDDIN
RUMIY

Ishni yarim yo‘lda tashLab,
chetga chiqib oладиган va
endi bu yog‘i nima bo‘lar
ekan, deb og‘zini ochib
qarab turadigan odam haqiqiy
ahmoqdir.

FRIDRIX SHILLER

2023
9-IYUL
O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI SAYLOVI

Badiiyat

Qadim rivoyatlarda aytilishicha, Tangri dastlab tabiatni – uning mahobatli tog‘larini, asrorangiz adirlarini, haybatli o‘rmonlarini va mavjlanib oqadigan daryo va buloqlarni yaratgan, keyin esa insonni yaratgan ekan.

ILK SO‘Z, ILK HAYRAT

Ma‘rufjon YO‘LDOSHEV,
filologiya fanlari doktori, professor

Tabiatning bir bo‘lagi bo‘lgan inson avval tovushlarni, so‘ngra so‘zlarni o‘rganibdi. Inson bolasi tovushni tabiatdan – buloqning shildirashi-yu, o‘rmonning shovullahidan o‘rgangan bo‘lsa kerak. Ammo u so‘zlarni qayerdan va qanday qilib o‘rgangan bo‘lsa? U kashf etgan ilk so‘z qanday jaranglagan ekan-a? O‘sha so‘zni kimga va nima maqsadda aytgan bo‘lsa?! Uni tuygan qavmdoshining ilk so‘z qarshisidagi hayrati-chi!?

Inson zoti tovushni tovushga ulab musiqani, so‘zni so‘zga bog‘lab she‘r va adabiyotni yaratgan. So‘z va musiqa azaldan qushning qo‘shqanotidek birga barhayot. Tilda hech bir so‘z yo‘qli, musiqadan mosuvo bo‘lsin. Har bir so‘zning o‘z jarangi, ohori va sehri bor.

Qadim madaniylardan birida so‘z jonli mavjudot sifatida tasvirlanadi. U dastlab inson badanida dunyoga keladi, uning qoni bilan oziqlanadi va kuchga to‘lgach, qafasidan ozod bo‘lgan qush misoli uchib chiqadi. Inson gapirgan sayin bag‘ridan qushlar uchib chiqaveradi. Tasavvur qiling-a, xursand bo‘lib gapirsangiz bulbullar chax-chax urib uchib chiqadi, g‘azablansangiz atrofingizni qarg‘alar qag‘illashi tutib ketadi. Ertaklarda qarg‘a qaqlimchi, chumchuq chaqlimchi, o‘rdak surnaychi, g‘ozlar karnaychi bo‘lishadi. Ajab, har kuni minglab, millionlab qarg‘alarni, chumchuqlarni, o‘rdag-u g‘ozlarni uchiramiz osmonga. Har kuni minglab, millionlab qaqlimchilar, chaqlimchilar, surnaychi-yu karnaychilar chiqib ketaveradi jonu tanimizdan kuch olib. Ular qayerga uchadi? Qayerlarga ko‘chadi? Qayerlargacha yetib boradi, ajab?

Ish bilan mashg‘ul bo‘lmagan
odam hech qachon to‘laqonli
baxtli bo‘lolmaydi. Ishyoqmas
kishining yuzida hamisha
norozilik va hafsalasizlik
alomatlarini ko‘rasiz.

HENRIX HEYNE

SAYLOV – DEMOKRATIYA KO‘ZGUSI

 1 Zero, amaldagi saylov qonunchiligidan fuqarolarning saylov huquqini, o'z xohish-istagini erkin ifodalash, o'z qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta'minlaydi

O'zbekistonda saylovlar, xususan, Prezident saylovlarini to'laligicha demokratik prinsiplar asosida o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasining XXII bobi saylov tizimiga bag'ishlangan bo'lib, mamlakatimiz saylov tizimiga oid muhim tamoyil va normalarni belgilaydi. Ushbu bobda O'zbekiston Respublikasi Prezidentini saylovining muhim prinsiplari mustahkamlab qo'yilgan. Bu prinsiplar saylovlarni xalqaro saylov standartlari asosida ochiq-oshkora va demokratik tarzda o'tkazishga imkon beradi.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi talablariga muvofiq, muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovni o'tkazish ishlariga qizg'in tayyorgarlik ko'rilmoxda. Partiyalar ilgari surgan nomzodlar o'z dasturlarini e'lon qilib, o'z saylov kampaniyalarini qizg'in o'tkazishmoqda. Markaziy saylov komissiyasining joylardagi okrug va uchastka saylov komissiyalari shakllantirilib, ularning faoliyatini yuqori darajada tashkil etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida Prezident saylovi umumiyligi teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqiga asosida yashirin ovoz berish yo'lli bilan o'tkaziladi. Fuqaroning Prezident saylovida ishtirok etishi erkin va to'liq ixtiyoriyidir. Unda o'n sakkiz yoshga to'lgan har qanday layoqatli fuqaro qatnashishi mumkin. Ushbu tamoyillar Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, O'zbekistonning butun hududida amal qiladi. Bundan tashqari, saylov uchastkalarida saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatilib, turli qonunbuzarliklarga yo'l qo'yilmaydi.

Yurtimizda zamon talablariga javob beradigan, demokratik tamoyillarga asoslangan davlat rahbari saylovini adolatli o'tkazish uchun barcha zarur siyosiy va tashkiliy shart-sharoitlaryaratilgan. Saylov jarayonining mustahkam huquqiy asosi yaratilgan



bo'lib, unda yangilangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va 2019-yilda qabul qilingan Saylov kodeksi asosiy o'rinni egallaydi. Bugungi kunda qonun saylov jarayonining barcha bosqichlarini to'liq qamrab olgan bo'lib, fuqarolarning o'z siyosiy xohish-istagini erkin ifoda etishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib bermoqda.

O'zbekistonda Prezidentlikka nomzod ko'rsatish huquqiga faqatsiyosiy partiyalar ega. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan beshta siyosiy partiya, ya'ni Liberal-demokratik partiyasi, Xalq demokratik partiyasi, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, Ekologik partiyasi o'z nomzodlari bilan saylovlarda ishtirok etadi. Saylov kodeksida bunday normaning mustahkamlanishi, bir tomondan, Prezident saylovi muqobilligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, eng munosib nomzodni tanlashda siyosiy partiyalar o'rtaсидаги рақобат мухитини вујудга келтирди.

Saylov jarayoni xalqaro huquq normalariga mos holda oshkoraliq, ko'ppartiyaviylik, erkinlik, tenglik tamoyillariga muvofiq ravishda bo'lib o'tadi. Bunda saylov tizimiga oid qonunchilikda fuqarolarning saylov oldi kampaniyasida va ovoz berishda erkin qatnashishi, ovoz berish yashirinligi, buni har bir fuqaroning o'zi bevosita amalga oshirishi belgilab qo'yilgani alohida ahamiyat kasb etadi.

Saylovlar, shubhasiz, mamlakat siyosiy hayotida muhim ahamiyatga ega. Saylovnning asosiy vazifasi hokimiyat va jamiyat o'rtasidagi siyosiy sohadagi aloqaning asosiy kanali bo'lishdan iboratdir. Saylovgarsiz bunday muloqot imkonsizdir. Jamiyat hokimiyatni shakllantirish, qonuniylashtirish va boshqarishda saylovjarayonlari orqali ishtirok etadi. Saylovlar jamiyatning siyosiy yetukligi darajasini ham belgilab berib, ertangi kunga daxldorlik hissini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, kelayotgan Prezidentlik saylovi xalqimiz hayotida muhim voqealarni bo'lishi shubhasiz. Yangi O'zbekistonni qurish yo'lida xalqimiz o'zi munosib ko'rgan nomzodni tanlashiga ishonamiz.

Joriy yilning 9-iyul kuni, yurtimizda juda muhim siyosiy jarayon – Prezident saylovi bo‘lib o’tadi. Ushbu muddatidan oldin o’tkazilayotgan Prezidentlik saylovi mamlakatimizda asosiy siyosiy kuch bo‘lgan beshta partiya uchun emas, balki eng avvalo ko‘p millatli xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun katta imkoniyat demakdir. Prezident saylovi Yangi O‘zbekistonga xos mutlaqo yangi siyosiy-huquqiy muhit, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda, yuksak tashkiliy saviyada, milliy hamda xalqaro qonunchilik norma va talablariga to‘liq rioya etilgan holda o’tkazilmoqda.

Barchani Yangi O'zbekistonimizning kelajagini tanlash bilan birga el-yurt istiqboli uchun ovoz berishga chorlab qolamiz!

Kutubxona – nurxona

(Maktab kutubxonasi bilan hamkorlik ishlari bo'yicha)

To'xtajon KUZIYEVA, Axborot-resusr markazi direktori

Ma'lumki, kutubxonalar qadimdan ziyo maskani bo'lib kelgan. Shu bois ziyoli insonlar kutubxonani nurxonaga qiyoslashadi. Zotan, ziyoga tashna bo'lgan adabiyot ixlosmandlari va ilm toliblarining qadami bu dargohdan uzilmaydi. Taraqqiyot shiddat bilan odimlar ekan, ziyo maskanlari bo'lgan kutubxonalarda ham ishni yangicha tashkil qilish va ilg'or axborot-texnologiyalaridan foydalanishni davrning o'zi taqozo qilmogda.

Shuni hisobga olgan holda joriy yilning aprel oyida institut Axborot-resurs markazi xodimlari Mirzo Ulug'bek tumani Shahriobod mahallasida joylashgan 187-maktabga tashrif buyurdik. Maktabning "Ma'nnaviy-ma'rifiy ishlari" bo'yicha direktor o'rinnbosari Muqaddas Aliyeva bizlarni iliq qarshi olib, maktabning kutubxona faoliyati bilan tanishtirdi. Maktab kutubxonasida Abdullayeva Liliya Shamilevna va Kostyayeva Olga Yurevnadan iborat ikkita xodim faoliyat ko'rsatadi. Kutubxona mudirasi Abdullayeva Liliya Shamilevna 1987-yildan beri kutubxona sohasida faoliyat olib boradi. Mazkur mакtab kutubxonasining umumiy fondi 53600 nuxsani tashkil etadi. Kutubxonada o'quv zali va kitob berish bo'limi mavjud. Fonddagi adabiyotlar alfavit tartibda joylashtirilgan bo'lib, lekin ularda elektron shakli varatilmagan. Avrim



adabiyotlarni internetdan yuklab olisha
ekan.

Shu munosabat bilan biz ularga metodik yordam sifatida o'zimizning elektron kutubxona telegram kanalimizdan foydalaniш va bundan tashqari "Unilibraru uz" O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining yagona elektron kutubxona axborot tizimi ta'sis etilishi kerak.

etgan dasturdagi elektron resurslardan foydalaniш tartiblari haqida ham ularga kerakli tavsiyalar berdik. Mazkur mакtab kutubxonasi bilan hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida, birgalikda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazishni va fonddag'i kam nusxdagi adabiyotlarning elektron shaklini yaratib berish sohalarida o'zimizning takliflarimizni berdik.

BOKUDA INSTITUTIMIZ DELEGATSIYASI

Joriy yilning 5–11-iyun kunlari Ozarbayjonning Boku shahrida II Turkiy dunyo adabiyot va kitob festivali bo'lib o'tdi. Festivalda Ozarbayjon, Turkiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Mojariston kabi turkiy tilli davlatlardan professor-tadqiqotchilar, ijodkor adiblar tashrif buyurishdi. Ular qatorida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti delegatsiyasi ham bor edi.

**Shavkat DO'ST MUHAMMAD,
O'zDSMI Iqtidorli talabalarning
ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil
etish bo'lim boshlig'i**

Xalqaro festival doirasida Ozarbayjon milliy nashriyotlarining kitoblar yarmarkasi, yangi nashrlar taqdimoti, nufuzli ijodkorlarning dastxat kunlari tashkil etildi. Shuningdek, tadqiqotchi olimlarning ma'ruzalari tinglandi, she'riy chiqishlar va qo'shiq-kuylar, filmlar namoyishlari taqdim etildi.

Festivalning oltinchi kuni "Turkiy dunyoning tamal diyorlari" mavzusida O'zbekiston kuni bo'lib o'tdi. Tadbir O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi bilan boshlandi. So'ng

Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi muxbir a'zosi Ko'ngil Bunyodzoda, tarix fanlari doktori Eynulla Madadli, falsafa fanlari doktorlari Faiq Aliakbarli

va Fuzuliy Qurbonovlar so'zga chiqib, o'zbek adabiyoti, jumladan, Hazrat Alisher Navoiy ijodining turkiy xalqlar madaniy hayotidagi ahamiyati haqida fikr yuritishdi. Tadbirning keyingi bosqichi Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi xususida bordi. Unda filologiya fanlari doktorlari Ramiz Asqar, Yashar Qosimbeyli, turk madaniyatini va merosi xalqaro jamg'armasi vakili Akif Azalp (Akif Bag'ir), Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi bo'lim mudiri Olmos Ulvi Binnatova kabi taniqli olimlar o'zbek adabiyoti, madaniyatini va san'ati xususida so'z yuritisharkan, Mirzo Bobur ijodini alohida e'tirof etishdi.

Institutimiz vakillari ham tadbirda faol ishtirok etdi. Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, filologiya fanlari doktori, professor Ma'rufjon Yo'idoshev mushtarak maqsadlarning adabiyot va kitob orqali ro'yobga chiqayotgani ayni muddao ekanini e'tirof etib: "Jadid bobolarimiz davrida turkiy adabiyot vakillari bir-birlarini tarjimonsiz tushungan. Ismoil Gaspirali "Tarjimon" gazetasida uch lajhadagi ma'nodosh so'zlarni parallel qo'llash orqali bu muammoni hal qilgan. Bu ishlarni bugungi adabiy jarayonda ham, albatta, davom ettirish kerak", – deya ta'kidladi. Shuningdek, olim milliy adabiy qahramonlarimizning umumturkiy ramz ekanii, turkiy madaniyat shakllanishida O'zbekistonning ahamiyati xususida fikrlar bildirdi.

Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti tyutori Qobil Urdishev ham o'zbek

madaniyati, adabiyoti va kitobatining turkiy xalqlar madaniy qiyofasidagi roli borasida fikrlar bildirdi. Shuningdek, Ozarbayjon adabiyotidan o'zbek tiliga tarjima qilingan kitoblar, "Teatr" jurnalining o'zbek teatr san'atiga Ozarbayjon san'atkorlarining ta'siri xususida maqolalar chop etilgan sonlaridan, mezbonlarga taqdim etildi.

Badiiy qismda Ozarbayjon va O'zbekiston xalq artisti Gulyanoq Mammedova xalqlarimizning madaniy birligini, aloqalarining mustahkamlanib borayotganini e'tirof etib, millatlar do'stligi haqida o'zbekcha va ozarbayjoncha qo'shiqlar kuyladi. "Mammedovaning o'zbek tilidagi qo'shiqlari festival ishtirokchilarini befarq qoldirmadi, san'atkor sahnadan kitobxonalar yoniga tushib kuyladi, muxlislar qo'llarini ko'tarib, jo'r bo'lib raqsga tushdi. Gulyanoq Mammedovaning har bir qo'shig'i tadbir ishtirokchilari tomonidan katta ishtiyoq va qarsaklar bilan kutib olindi", – deb yozadi Ozarbayjonning nufuzli nashrlaridan biri "Bizim.media". Shuningdek, nashr o'zbek va ozarbayjon xalqlarining birdamligi, turkiy xalqlarning do'stona aloqalari mustahkamlanishida bu kabi festivallarning ahamiyati haqida ham to'xtalib o'tgan.

O'zbekiston kuniga bag'ishlangan tadbirlar, qo'shiq va raqlar, dolzarb mavzulardagi ma'ruzalar ishtirokchilarga kun davomida taqdim etildi. Kun yakuni sifatida Xayol Rizoning inson jasoratiga bag'ishlangan "Maya" hujjatli filmi namoyish etildi. Premyeradan so'ng film ijodkorlari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

II Turkiy dunyo adabiyot va kitob festivalining O'zbekiston kuni yuqori saviyada, qizg'in ijodiy muhitda kechdi. Darhaqiqat, turkiy adabiyot bir ildizdan suv ichgan katta bir daraxt. Bu daraxt baquvvat shoxlardan, o'zbek, qozoq, turk, ozarbayjon, turkman, qirg'iz kabi mustahkam butoqlardan tarkib topgan. Bu katta daraxtning hayotbaxsh soyasi esa qizg'in dunyoni hovuridan tushirishga, to'g'ri yo'liga: yaxshilik, ezgulik, insoniylik yo'liga boshlashga qodir. Buni ifoda etishda mazkur yig'inlarning, shu kabi xalqaro festivallarning o'rni beqiyosdir.



SHE'RIY DRAMA — qalb ohanrabosi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida yoshlarga, tolibi ilmlarga "Sahna nutqi" fanidan ilmiy-amaliy saboq berib kelayotgan mohir pedagog, san'atshunoslik fanlari nomzodi, "Do'stlik" ordeni sohibi Go'zal XOLIQULOVA bilan bo'lgan suhbatni e'tiboringizga havola etamiz.

— Go'zal Erkinovna, she'riy dramalarga oid tadqiqotlarni kuzatar ekanman, sizning tarixiy she'riy dramalar talqinidagi ilmiy ishingizga qiziqishim ortdi. Guvoh bo'ldimki, sahna nutqidan talabalar bilan mashg'ulotda she'riyatga juda ko'p urg'u berar ekansiz. Bugungi kunda teatr sahnasida she'riy dramalarning sahnalashtirilishi qanchalik muhim, deb o'ylaysiz?

— Teatr sahnasi uchun eng muhim janr hisoblangan she'riy drama — dramatik turga mansub bo'lgan murakkab janr hisoblanadi. Men she'riy dramani rejissyor uchun ham, aktyor uchun ham, qolaversa, tomoshabin uchun ham tafakkurning charxi deb hisoblayman. Chunki, dramaturgning poetik so'zi mohirlik bilan yozilgan bo'lsa, obrazlar o'z xarakteriga xos xislatlari teran va baquvvat tilda yozilgan, g'oyasi jihatdan kuchli bo'lsa har kimga ish topiladi. Birinchidan, so'zlarning tub ma'nosini anglash, she'riy matnni o'zlashtirish, uni tomoshabinga yetkazish uchun sahnaviy nutq kommunikatsiyalaridan foydalanish ustida ishlash muhim bo'lsa, ikkinchidan, obraz yaratish mahorati to'g'risida bosh qotiriladi, uchinchidan, asar g'oyasini ochib berish kerak. Bunda rejissyor, aktyor, bastakor, rassom hamkorlikda ishlaydi. Rejissyor hammasini birlashtirib, spektaklni tomoshabinga taqdim etadi. Shuning uchun ham dramaturg-shoir yozgan bilan baravar afishada rejissorni muallif, deb e'lon qilinadi.

— O'zbek teatri sahnalarida she'riy dramalarning sahnalashtirilishi va uning yuksak muvaffaqiyatlarga erishishi, avvalo, nimaga bog'iq?

— Bu borada teatrshunos olimlar o'zlarining monografiyalardan, ilmiy tadqiqotlarda ko'p to'xtalganlar. Milliy va xorijiy she'riy dramalarni maromiga yetkazib tahsil qilganlar. Men o'zbek tarixiy she'riy dramalar ustida tadqiqot olib borish jarayonida bunga ko'p bor amin bo'lganman. Ilmiy anjumanlarda akademik Mamajon Rahmonov she'riy drama yozadigan dramaturg, avvalo, sahna sirlarini puxta o'rganishi kerakligini, dramaturg qanchalik talantli bo'lmasin, agar ko'p vaqtini teatrdan o'tkazmasa, sahnabop asar yoza olmasligini doim takrorlar edi. Darhaqiqat, tarixdan ma'lumki, atoqli dramaturglarimiz Ziyo Said, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Izzat Sulton, Uyg'un, Turob To'la, Umarjon Ismoilov, Sobir Abdulla, Said Ahmad, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi ulug' ijodkorlardan qanchalik baquvvat she'riy asarlar sahna yuzini ko'rди va minglab tomoshabinlar qalbidan o'r'in oldi.

— Ana shu atoqli dramaturglarimizning asarlari sahna yuzini ko'rishda qanday ishlashgan-u, hozirgilarda qanday? Fikringiz qiziq.

— She'riy dramalarda sahna nutqi masalalarini ochish jarayonida juda

ko'p rejissyor va aktyorlar bilan suhbat olib borishga to'g'ri kelgan. Masalan, xalqimizning qalbida chuqur iz qoldirgan zabardast ijodkorlar Bahodir Yo'ldoshev bilan Turob To'laning hamfikrlikda sahnalashtirgan "Fig'on" spektakli va sahnada Nodirabegim obrazini yaratgan Yayra Abdullayevanig talqinida qancha tortishuvilar, tinimsiz muhokamalar bo'lgan ekan. Ayniqsa, spektaklning boshlanish jarayoni asar g'oyasini ochishda qanchalik muhim ekanligini, bunda qahramonning monologi alohida ahamiyat kasb etishini va bu masala yuzasidan rejissyor va muallif qanchalar ko'p bosh qotirganini, Turob To'la spektakli muqaddimasidagi Nodirabeginning so'zlarini Bahodir Yo'ldoshev talabiga muvofiq to'rt, besh marta o'zgartirib yozib kelganligini, Yayra Abdullayeva bilan bo'lgan suhbatlarda aniqlaganman.

Shunga asosanib, mahoratlari rejissyor Valijon Umarov bilan go'zal she'riy tili, badiiy mazmundorligi bilan qalblarni to'qinlantirib yuboradigan dramaturg Hayitmat Rasulning "Piri Koinot" spektakli ustida aktyor G'aybullo Hojiyev, aktrisa Sayyora Yunusovalar bilan ishlash jarayonlarini ko'p kuzatganman. She'riy asarda tilga yoqmaydigan, boshqacha qilib aytganda, talaffuz qilishga qiyin bo'lgan so'zlarning o'rniga boshqa qulayroq so'z topib berishni aktyorlar iltimos qilganida, spektakldagi davr muhitini aks ettirish uchun aynan dramaturgning o'sha "qiyin" so'zlarini kerakligini, bu so'zlarni olib tashlash emas, aksincha, uning tub ma'nosini ochish va to'g'ri ifodalash kerakligini rejissyor, dramaturg va aktyorlarga tushuntirayotgan jarayonlaridan to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarganman. Yaxshi asarlar mana shunday jarayonlarda pishar ekan. Ayrim yosh rejissyorlar dramaturgдан pyesani qo'liga oliboq, muallif bilan xayrashib, jo'natib yuborganlarini ham eshitganmiz. Fikrimizcha, bu ish to'g'ri emas.

— Demak, she'riy drama sahnalashtirishda hamkorlikning o'rni katta ekanda?

— Albatta, bu jarayon faqat she'riy dramada emas, balki barcha janrdagi sahna asarida muhim, deb o'yayman. Aynan she'riy asarlarning sahnaviy talqinlarini tekshirishga kirishgan bo'l-sangiz, jarayonlarni erinmasdan kuzatishingiz va tegishli xulosalar chiqarib, ijodkorlar ishiga to'g'ri bera olishingiz kerak. Aktyorlarning aynan she'riy nutqi qanday jaranglayapti, davr muhitini to'g'ri ifodalayaptimi, rejissyor talabini ijroda qanday amalga oshiryapti. Asar g'oyasi bugungi kun g'oyasiga qanday hamohangligi bor, kabi savollarga javob topish kerak.

Bugungi kunda tomoshabinlarimiz, ayniqsa, yoshlarmiz sevib tomosha qilayotgan klassik she'riy asar — Uilyam Shekspiring "Romeo va Julyetta"



tragediyasini mohir rejissyor Olimjon Salimovning muvaffaqiyati birinchidan, rejissyorning to'g'ri talqini, ya'ni bugun dunyoda kechayotgan davlatlararo kelishmovchiliklar, urush va uning oqibatida sodir bo'layotgan fojalarning asl sababini ko'rsatish bo'lsa, ikkinchidan bu g'oyani ijroda ko'rsatib bera oladigan aktyorlarni to'g'ri tanlagani, ularni ocha olganidir. Uchinchidan, rejissyorning rassom bilan hamkorlikdagi ishi. Bugun ushbu spektaklning qachon o'ynalishini sabrsizlik bilan kutayotgan o'z tomoshabini bor. O'yaymanki, tadqiqotchi bu jarayonlarni diqqat bilan kuzatib borishi kerak. Bu fikrlar spektaklni tomosha qilgandan keyingi fikrlar, xolos. Agar masalaga chuqurroq yondashib, ijodkorlar bilan suhbatlar olib borilsa, bundan-da kengroq fikrlar, xulosalar shakllanadi. Aslida ilmdagi qimmatbaho satrlar kuzatishlar, suhbatlar asosida paydo bo'ladi.

— Nasriy dramadan she'riy dramalarning tomoshabin uchun qanday afzalliklari bor, deb o'yaysiz?

— She'riy drama ijro etilgan asarlarning afzalliklari bilan birga uning foydasi juda katta. Ayniqsa, bugungi aktyorga ham, tomoshabinga ham kerak. Aktyorlik mahoratini shunchaki qiziqish, havas bilan o'zlashtirib bo'lmaydi. Unga kuchli xotira, ravon sahnaviy nutq, tiniq ovoz, plastik jihatidan sahnaga moslashuvchan, sahnaviy harakat o'ta yengil bo'lishi kerak. Buning uchun aktyor, mashaqqatli aktyorlik kasbini mukammal o'zlashtirishi shart. She'riy dramalarning tilini o'zlashtirishda so'zlarni shunchaki yodlab aytish maqsadga muvofiq emas. Unda sahna nutqining minglab kommunikativ texnologiyalaridan foydalaniladi. She'riy asar aktyorni ana shunday talablarni bajarishga majburlaydi.

Endi, tomoshabin uchun-chi? Siz she'riy asarni mahorat bilan ijro etayotgan aktyorning nutqini tinglayotgan tomoshabinni bir kuzating. Uning diqqatini biror narsa chalg'itolmaydi. She'riy nutq uning qalbini larzaga keltiradi. Demak, tomoshabinni eshitishga ham o'rgatadi, tafakkurini kengaytiradi, so'z boyligini oshiradi. Bunday hamohanglik qaysi aktyorni ilhomlantirmaydi? Uning kundankunga miyasi charxlanib boradi, quvvai hofizasi mustahkamlanadi, tili burro, nutqi ravon bo'laveradi.

— Ha, chindan ham shunday. Sizning bu fikrlaringizni tinglab, ko'z oldimga maktabdagи murg'ak qalblarning she'riyatdan to'qinlanib ketganlari keldi. Men ustoz shoirlar yozgan she'rlarini yoki o'zimning she'rlarimni maktablarda, uchrashuvlarda, turli davralarda o'qiganimda, tomoshabinning o'ta diqqat bilan

eshitishini kuzatganman. She'riy dramalardagi bu holatni farzandlarimiz, o'quvchi-yoshlarmiz ko'proq kuzatib, ham madaniy hordiq chiqarib zavqlanishi, ham tafakkur olamini kengaytirishi uchun teatrлarga ta'til paytlarida tez-tez oborib turishimiz to'g'ri ekan, degan fikr uyg'ondi. Aytingchi, bugun she'riy dramalar uchun qanday mavzularga qo'l urish kerak, deb o'yaysiz?

— Mavzuning ahamiyati yo'q. Siyosiy, ijtimoiy, diniy, epik, folklor hamma-hamma mavzular dolzarb. Bugun aholimizning soni o'ttiz olti milliondan oshdi. Ularning o'n sakkiz milliondan oshig'i yoshlardir. Teatrlarimizning soni qirqtadan oshdi. Bugun yoshlarni har qanaqa mavzu qiziqtiradi. Chunki ularda axborotlar nihoyatda ko'p, turli mavzulardagi masalalarga qiziqishlari ko'p. Ular o'zlaridagi ba'zi savollarga javobni internetdan olishmoqda. Dunyo olimlari: "Internet – bu axborot, ilm emas", "Tafakkur qiliш kerak, tafakkur – bu yaxshi kitob, yaxshi musiqa, yaxshi kino, yaxshi spektakl", degan falsafiy fikrlarni ilgari surishmoqda. Demak, biz o'z vazifamizdan kelib chiqadigan bo'sak, teatrlarimizni yaxshi spektakllar bilan boyitaverishimiz kerak.

— Go'zal Erkinovna, sizga g'alati tuyulsa ham yana bir savol beraman. She'riy drama yozadigan dramaturg shoir bo'lish kerak, degan talab bor. Uni sahnaga olib chiqadigan rejissyor shoir bo'lishi kerak emasmi?

— Bir suhbatda Hayitmat Rasul aytgan edi: she'riy asarni she'riyatdan xabari bor kishi yozgani ma'qul, deb. Rejissyor shoir bo'lishi short emas. Lekin aytingchi, qaysi rejissyor she'riyatni yomon ko'radi? Men juda ko'p rejissyorlarning matn ustida ishslashini kuzatganman, intervularini tinglaganman. Masalan, Bahodir Yo'ldoshev Navoiy asarlarini o'qib, hayratlangani va suhbatlashganimda uzoq vaqt jim o'trib xayolgacho'mib qolganini, men bu holatdan ustozga nima deyishni bilmay qolganim ko'z oldimdan ketmaydi. Valijon Umarovda ham shunaqa holatni ko'rganman. Olimjon Salimov bilan rejissyorlik kursida birga ishlaganimda, talabalarga: "She'nda so'zni his qiling, tushunib ifodalang", deb uqtirar edi. Talabalarga bergen she'riy repertuarlarimga alohida e'tibor berar edi. Shuning uchun bugungi kun sahna asarlarini tekshiruvchi, talqin qiluvchi magistrallarga, umuman tadqiqotchilarga ko'chirmakashlik bilan shug'ullanmang, o'qing, izlaning, kuzating va to'g'ri yozing, degim keladi.



G'olib MEYLIBOYEV,
“Madaniyat va san’at sohasi menejmenti”
ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi



E’zoza KARIMOVA,
“Madaniyat va san’at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish” ta’lim
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi



Amriddin SHOMURODOV,
“Madaniyat va san’at
menejmenti”
ta’lim yo‘nalishi sirtqi
2-bosqich talabasi



Nozima ULUG‘OVA,
O’zDSMI Nukus filiali “Sahna
va ekran san’ati dramaturgiyasi”
3-bosqich talabasi

YURTIM

Yurtim, asirliging poyonga yetdi,
Kamlardir erk uchun dunyodan ketdi.
O’g’loning tugamas, erklikka bor saloming,
Allohgaga yetibdur, shirin kaloming.

Qodiriylar ketgan yilda,
kelda isloming!
O’zbekiston, o’z noming sening,
Qad ko’targan qadding sening,
Yorug’ kun hamki boshlanar tongdan.

Xudo bergen bu mo’jiza bolangdan,
Umri o’tdi shu elga yurtim, deya.
Bu yorug’ olamga ko’rsatib ulug’ noming,
Qodiriylar ketgan yilda,
keldi isloming!

O’zbekiston, o’z noming sening,
Qad ko’targan qadding sening.
Bizga shundayin bir poydevor yaratdi,
Barkamol avlodga mehrin qaratdi.

O’zbekona shukuh ohang yaratdi,
Qodiriylar ketgan yilda,
keldi isloming!
O’zbekiston, o’z noming sening,
Qad ko’targan qadding sening.



YETTINCHI QAVAT

Yettinchi qavat...
Va men derazadan pastga qarayman.
Dardli sog ‘inchimni qalbga o’rayman,
Bu ko’ksim ichida dardlarim qat-qat!..
Yonimda sen turmaysan faqat...

Fazoni bulutlar qoplagan, ammo
Ko’zimga kunduz ham ko’rinar yulduz.
Go’yo bor sirini ochgandek samo,
Lek sening siringni bilmayman hanuz.

Yettinchi qavat...
Pastdagi maydoncha bolaga to ‘la.
Shovqin solishadi – sog ‘inchim misol,
Qachondir shu joyga kelsang, bir yo’la
Meni-da bir yo’qlab ketishing, malol.

Nimadir tinchimni buzdi daf’atan:
Axir yakshanba-ku, “dam olish” bugun!
Nahot ruxsat so’rash kerak taqdirdan,
Hattoki, tushimda sog ‘inmoq uchun...

Ko’zimni ishqalab, pardani ochdim:
O’zini oynaga urar bir qushcha.
Tashqari oppoq qor, kelibdi qish ham...
Lekin sen kelmading, men kuttim shuncha...

G’ANIMAT DUNYO

Ne zamonlar o’tdi,
Ne-ne insonlar.
Shohmi yo gadomi,
She’r-u sultonlar.

Payg’ambarlar o’tdilar,
Shoh Sulaymonlar.
Biz ham o’tib keturmiz,
Aziz insonlar.

Mehr ayamaylik,
Bir-birimizdan.
Shod-xandon bo’laylik,
Har kunimizdan.

Ko’ngil ko’tarmoqlik,
Iymondan erur.
Ko’ngillar xushlaylik,
Xush so’zimiz-la.



Shu desangiz erta tongdan,
Tush ko’ribman bir ajoyib.
Yor kelib olis tomondan,
Sovg’alar berib g’aroyib.
Egnidagi ko’ylagini,
Ko’rmagandim avvallari.
Men uchun sotib olibdi,
Ishlab ketib kallalari.

Qop-qora shim, oq poyabzal,
“Ochki”lari bir yarashgan.
Yurak qurg’ur sal dardisar,
Aql bilan ko’p talashgan.
Sochin ko’rib, ko’zim hayron,
Hayajondan tishlab tilim.
Soqollari misli jayron,
Deydi: keling, menman gulim.

Voy o’lmasam, ko’zni yuming,
Bu holimni ko’rmang aslo.
Biroz kuting, poylab turing,
Bek, sultonim, aqliraso.
Hay-haylarim kiyib olay,
Oynaga bir nazar solay.
Sochim tarab, yuzim bo’yab,
Prinsessa bo’lib olay.

Derazadan baqiraman,
Shahzodamni chaqiraman.
Agar oq tuflicham kiysam,
Sizdan ozroq past bo’laman.
Uyalmassiz bo’ylarimdan,
Oyoq bosgan yo’llarimdan.
Hayajondan toyib ketsam,
Tutib oling qo’llarimdan.

Ich-ichimdan sevinaman,
Yurishga ham erinaman.
Qimmat kafe-restoranga,
Borib olib kerilaman.
Mana buni uchrashuv deb,
Ko’p maqtanib aytса bo’lar.
Cho’ntak qurg’ur g’amin yeb,
Kuyib o’lsin, essiz pullar.

Bilasizmi men ham ba’zan,
O’ylab yorim hamyonini.
So’rolmasdim, hatto arzon,
Atir, tilla do’konini.
Qizposhshalar shunaqada,
Uyalib ko’ngil ocholmas.
Yigit o’lmagur xasis bo’lsa,
Qalbimizga yo’l topolmas.

Hayot o’zi kitob erur,
O’qimoqlik xitob erur.
Go’zal qilib sahifasin,
Inson zoti ko’krak kerur.
Ana-mana degunimcha,
Tongimiz ham otib goldi.
Mening ishqiy xayollarim,
Tushlarimda qotib goldi.

Mayli, tush ham o’z yo’liga,
Siz chiroyli hayot quring.
Mehribon Alloh izmiga,
Umringiz ishonib qo’ying.
U qodirdir barchasiga,
Duo qiling sajdasiga.
Fayz-barokat solib qo’ysin,
Yorllarimiz aqchasiga.

AJRALISH

O’ylamay titratib Xudoning arshin,
Guldayin tur mushning quyoshi so’ndi,
Oqizib farzandlar ko’zidan yoshin,
Qarorning so’nggisi ajralish bo’ldi,
Yurakka baxt emas, armonlar to’ldi.

Ko’ngilni chulg’agan gumon va alam,
Zulmatdir yorishmas endi hech olam,
Ne deyin yor seni so’rasa bolam,
Qarorning so’nggisi ajralish bo’ldi,
Yurakka baxt emas, armonlar to’ldi.

Sizlar-ku, ketarsiz yo’lingiz topib,
Abadiy muhabbat eshigin yopib,
Ammo lek murg’ak qalb qoladi cho’kib,
Qarorning so’nggisi ajralish bo’ldi,
Yurakka baxt emas, armonlar to’ldi.

Oynaga termular ikki ko’zi nam,
Kulmaydi qo’liga oyni bersang ham,
Ul go’ dak dardiga topilmas malham,
Qarorning so’nggisi ajralish bo’ldi,
Yurakka baxt emas, armonlar to’ldi.

Muqaddas nikohga xiyonat qilib,
Ayriliq yo’lini to’g’ri deb bilib,
Oqibat surriyot bag’rini tilib,
Qarorning so’nggisi ajralish bo’ldi,
Yurakka baxt emas, armonlar to’ldi.

Ahrorbek INOMJONOV,
“Madaniyat va san’at
sohasi menejmenti” ta’lim
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi



DADAM

Bilaman, dardingiz juda ko’p dadam,
Ichingizda saqlaysiz barcha-barchasin.
Biz uchun joningizni ayamaysiz ham,
Men sizni yaxshi ko’raman, dadam!

Qadringiz qaddizdek tik bo’lsin doim,
Charchamang, tol mang hech bir ishdan.
Hayot saboqlarin bergan muallim,
Men sizni yaxshi ko’raman, doim.

Otajon, kechiring, ranjitgan bo’lsam,
Qalbingizda turli xil dardli tug’yonlar.
Ayting, bu dunyoda bormikan, deb
Ota-onamizdek aziz insonlar.

Bilaman, dardingiz juda ko’p dadam,
Ichingizda saqlaysiz barcha-barchasin.
Biz uchun joningizni ayamaysiz ham,
Men sizni yaxshi ko’raman dadam!



Kamoliddin TOLIPOV,
“Madaniyat va san’at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish” ta’lim
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi



Aktyorning sevgisi

HIKOYA



– O-o-o, Zulfiyajon! Havoni aytmaysizmi? Mayin-mayin yomg'irlar... Tog'lar bulutlarga tegib qadalib turibdi. Men tog'daman!

– O-o-o, Zulfiyajon! O'rmonni aytmaysizmi? Salqin. Yana yomg'ir.

– O-o-o, Zulfiyajon! Bunchalik go'zal manzarani ko'rmasansiz. Tog'ning poyida ko'l. Cho'milayapmiz...

– Zulichka, biz hozir chuqur zovlik yonida ketayapmiz. Pastga qarab bo'lmaydi, boshingiz girillab aylanib ketadi, jonim. Hu-u-v, zovlikda sharqirab, ko'pirib soy oqayapti.

– Zulfiyajon, jonim! Biz hozir arxon orqali, halinchakda tog' cho'qqisiga chiqib ketayapmiz. Xo'p, ehtiyot bo'laman...

– O-o-o, Zulichka! Bizlar Elburning poyidamiz. Qor, oppoq qor. Yozda qorni ko'rganmisiz? Issiq kiyiganman, jonim! Xo'p.

– Zul... Zulichka! Biz qaytayapmiz. Yo'lda... Narzan

suv oldida to'xtadik. Tasavvur qiling-a, quvurdan Narzan suv otilayapti. Yonimda bo'lganingizda edi, siz ham mazza qilardingiz. Xo'p, ehtiyot bo'laman!

“...Rosa jonga tegdi-ku. Laqqi ekan. Xotinqli, nima qilsa hisobot berarkan. Bu shallaqi miyamni yeb tamom qiladi. Ertaga xonamni o'zgartirmasam bo'lmaydi...” Nusrat yonida o'tirgan, yelib borayotgan avtobus oynasidan tevarakni qo'ltelefon videosiga olayotgan aktyorga ijirg'anib qarab qo'ydi. Qudrat og'zi qulog'ida, qo'ltelefon oynasiga termilib so'zlay boshladi:

– Zulichka, qaytayapmiz. Zo'r taassurotda. Xonaga borganda gapirib beraman. Videoni ko'rdingizmi? E-ye-ye, telefonimning kuchi qolmayapti, hozir o'chadi. Xo'p, jonim. Olaman, albatta, olaman.

Nusrat shergiga hayratomuz qaradi. Aktyor

ko'zlarini yumib jilmaygan ko'y, boshini avtobus oynasiga suyadi. Allaqanday kuyni xirgoyi qila boshladi. Bir tomondan Nusratning unga havasi ham keldi. Oltimishdan oshgan odamning xotinquli bo'lib, jufti haloliga har lahma axborot berib turishini o'z fe'l-atvoriga yuqtira olmasligini ich-ichidan his qilsa-da, baribir bularning hayoti boshqacha ekan, kim bilsin, er-xotin bir-biriga suyanib qolishgandir, degan xayolga bordi.

– Zulfiyajon, biz yetib keldik. – Zulichka, men ustayapman, jonim... – Zulfiyajon, osmonni, yulduzlar yuzini bulut qopladi. Tun bo'yi yomg'ir yog'sa kerak. Kim? Ha-a, shergim-mi? Indamas bir narsa ekan. Toshday qotib ustayapti. Uning nima ishi bor, men bilan. E-ye-ye, sevgidan uzoq odamga o'xshaydi.

Nusratning sabr kosasi chil-chil sindi. O'rnidan dast turib, chiroqni yoqdi. Aktyor



Qo'chqor NORQOBIL,
O'zDSMI dotsenti,
O'zbekistonda xizmat ko'satgan jurnalist

ham sapchib turdi. Ko'zları ola-kula. Dag-dag' titraydi. Nusrat ijirg'andi. Qo'rquvdan tili kalimaga kelmay g'uldirab, bo'zraygan aktyorning aft-angorini ko'rib, shashtidan tushdi. Shaytonga hay berdi. O'zini bosdi:

– Ertalabdan boshqa xonaga yo'qoling. Bu ketishda, sizni bir balo qilib qo'yaman...

– Ni... nima qilasiz, ukajon?
– dedi aktyor qo'li ko'ksida, yuziga ayanchli tus berib, xuddi jazosini kutgan quiday qaltirab.

– Nima qilsam, qilaman!
Ajinam otlansa, manavi derazadan pastga uloqtiraman. O'imasangiz ham mayda-chuyda bo'p ketasiz.

Aktyor ikkinchi qavat derazasidan yerga tarsillab tushganini tasavvur etdimi, bujmayib ihrab yubordi va o'zini to'shakka tashlab, ustidan ko'rpani tortdi. Miq etmadni. Dami chiqmadi. Nusrat uning bu g'alati qilg'ilig'idan o'zini zo'rg'a ushladi. Ichidagi kulgi bo'ronini bazo'r tiydi-da, sharaqlatib derazani ochdi. Ko'rpa ichi bir qimirlab, ihragan ovoz keldi. Ko'rpa ichi g'ujanak tortdi.

Tong payti, kravatning bir chetida qovoq-tumshug'idan qor yoqqan ko'y bir nuqtaga tikilib turgan aktyorga Nusrat achinib qaradi. Ko'zları qizarib ketgan, yig'labdi. Unga rahmi keldi. “Mayli, boshqa takrorlamaydi. Har holda diydiyosiga dam beradigan bo'lgandir...”

– Uka, men sizdan uzr so'rayman. O'z ko'nglimni o'zim xushlab yuraman-da. Yaxshi bir joy, go'zal davralarni ko'rsam, beixtiyor yangangizga ham ilingim keladi. Nima qilay, shunday bir dardga yo'liqqanman. O'zimni yo'qotib qo'yaman... Gapiraveraman, gapiraveraman... Bitta-yarimta kimsa esimni

qaytarmaguncha, shu ahvolda yuraveraman. Ishga ham bormay qo'yanman.

Nusrat endi bu g'alati insonga yanada taajjublandi. Uncha-muncha rollar ijro etib, kino-pinolarda ora-sira ko'zga tashlanadigan, kamnamo san'at odamining merovlanishidan endi achchiqlandi:

– Unday ekan, yangamizni ham birga olib keling edi. Nima qilasiz, o'zingizni qiyab?..

– Buning iloji yo'q-da, ukajon...

– Nega?

– Yangangiz kelolmaydi. U kishi vafot etgan. Besh yil bo'ldi... Lekin men har kuni gaplashaman, – aktyorning ko'zlaridan duvillab yosh sizdi.

Nusrat bir qalqdi. Yuzi jimirlab, a'zoyi badani junjikdi. Gandiraklab eshikka chiqdi-da, yo'lak bo'ylab tashqariga otildi. Oromgoh adog'idagi o'rindiqqa behol cho'kdi. Oromgoh qarshisidagi Kavkaz tog'lari termuldi. Qaltiragan barmoqlari bilan qo'ltelefon raqamini terdi. Uning oynasida xotini Oyjamolning chehrasi paydo bo'ldi:

– Omonmisan, Jamol? – dedi u zo'rg'a. – Sog'liging yaxshimi, Jamol? Tezda o'g'lingga ayt. Samolyotga bilet olsin. Ertaga reys bor. Uchib kel! Gapimni bo'Ima, tezroq kel! Sen... seni... aeroportda o'zim kutib olaman.

Nusratning ovozi qaltirab chiqdi. Ruhiyatimni xotinim sezmasin, dedimi uning javobini ham kutmay, qo'ltelefonini o'chirdi. Ancha payt tog'larga termulib turdi. Ayni zamohda xonasiga kirishga, o'zidan-da kuchli va qudratli, balkim yer yuzidagi barcha odamlardan qudratliroq, xokisor bir samimiy insonning huzuriga borishga yuragi dosh bermayotgandi.

YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLARNING İJTİMOİY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI

Mamlakatimizda so'nggi olti yil mobaynida misli ko'rilmagan islohotlar amalga oshirildi. Davlatimiz rahbari rahnamoligida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda yangicha dunyoqarash asosida shiddatli rejalar tuzildi va amaliyotga tatbiq qilindi. Albatta, bularning barchasi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan xayrli tashabbuslar, olib borilayotgan ezgu sa'y-harakatlar natijasidir.

Hammamizga ma'lumki, jonajon O'zbekistonimiz mustaqilligining 31 yilligi tantanasida, Prezidentimiz tomonidan Uchinchi Renessans davriga poydevor qo'yilayotganligi alohida ta'kidladlandi. Bu ta'kid o'z o'mida, ilm va ma'rifat har qanday quroldan, har qanday tabiy boylikdan, har qanday kuchdan afzal ekanligini hayotning o'zi isbotlab turibdi. Yoshlarga ilm berish, ularni kamol topishlari, dunyo sahnasida O'zbekiston nomidan bo'y ko'rsatishlari uchun olib borilayotgan har qanday tashabbus keng qo'llab-quvvatlanishi ham ayni haqiqatdir.

Ayniqsa, yoshlarimiz kamolotiga yangicha talablar qo'yilmoqda. Har qachongidan ko'ra, ko'proq ichki va tashqi go'zallikning axloq bilan birlashuviga ahamiyat kuchaydi. Yoshlardagi faqat tashqi ko'rinish estetik madaniyatning yaxshi bo'lishiga olib kelmasligi, balki ulardan axloqan pokiza, ma'naviy dunyosi boy, saxovatli, iymoni, muomala madaniyati yuksak bo'lishi kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar ham talab etila boshlandi. Ayni paytda yoshlarni yuksak ma'naviy jihatdan tarbiyalash va estetik madaniyatini oliyanob his-tuyg'ular bilan kamol toptirib borish ma'naviy barkamollikka yetishishdagi birinchi qadamdir.

Haqiqiy axloqiy tarbiyalangan yoshlar ulug' rus yozuvchisi Anton Pavlovich Chexov so'zları bilan aytganda: "Har tomonlama, ya'ni o'zining qiyofasi, kiyinishi, ruhiy va fikrlari jihatidan go'zal bo'lishi kerak". Ayni paytda esa yoshlarimiz hayotini axloqiy va estetik jihatdan kamol toptirib borish jamiyat a'zolarining o'z qo'lida ekanligini anglab yetish joizdir. Mamlakatimizda olib borilayotgan komil inson tarbiyasi jismonan baquvvat, axloqan pok, ma'naviy barkamol, vatanparvar hamda insonparvar yoshlarni ozod va obod Vatan ravnaqi yo'lida faol shaxs etib voyaga yetkazishga qaratilgan. Albatta, ushbu barcha xayrli ishlarning sababchisi va rahnamosiy Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevdir.

Hozirgi kunda kelajak avlodni yetuk va salohiyatlil qilib tarbiyalashda, ularning ijtimoiy faolligini oshirishda madaniyat va san'atning o'rni beqiyos, albatta. Sababi, kelajak avlod o'zining madaniyatini, san'atini, tarixini bilmas ekan, u holda o'ylagan maqsadlarga erishish juda qiyin kechadi. Ayniqsa, jamiyatdagi takomillashish jarayonida yoshlar ijtimoiy faolligining oshishi dolzarb masala ekanligini bilishimiz kerak. Chunki yoshlarni to'g'ri yo'iga yo'naltirish, har birini ziyoli shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning asosiy maqsadidir.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy jihatlarini o'zida qamrab oladi. Jamiyatimizda yashovchi yoshlar ana shu sohalarning barchasida ijtimoiy faoliyot ko'rsatishlari hayotiy zaruriyat ekanligini bilishlari shart. Bu borada esa, albatta, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, madaniyat va san'atning o'rni juda katta. O'tgan yil mamlakatimiz rahbari Oliy Majlisga qilgan murojaatnomada: "Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lami islohotlar xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida ozining yaqqol ifodasini topmoqda, el-yurtimizning ijtimoiy faoliyoti, ertangi kunga ishonch o'sib bormoqda", – deya ta'kidlagan.

"Ijtimoiy faoliyot" keng qamrovli tushuncha bo'lib, u kelajak avlodning ta'lim-tarbiya, ilm-fan sohasidagina emas, balki madaniyat, san'at sohalariда ham faol bo'lishini anglatadi. Demak, ijtimoiy faoliyot o'zining tub mohiyatiga ko'ra, kishilar jamiyat hayotining iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, sotsial va boshqa sohalardagi faolligini ifodalaydi. Bozor munosabatlari va yangicha madaniyat va san'at sohasidagi dunyoqarash shaxsnинг ijtimoiy faoliyoti strukturasida ma'naviy-intelektual, ijtimoiy-siyosiy faoliyot yetakchi va hal qiliuvchi element ekanligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda yurtimizda milliy madaniyatimiz va san'atimizni yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar

amalga oshirilmoqda va bu islohotlardan har bir kelajak avlod xabardon bo'lishi shart va zarur, deb hisoblayman. Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot Strategiyasida" ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish asosiy yo'nalishardan biri sifatida belgilangan bo'lib, ko'zlangan maqsad hamda vazifalarga erishish madaniyat va san'at muassasalar faoliyatini innovatsion yondashuvlarga asoslangan holda yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. O'tgan olti yil mobaynida mamlakatimizda madaniyat va san'atni qo'llab-quvvatlash, milliy madaniy va ma'naviy merosni saqlash hamda ko'paytirish, xalqimizni milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish, moddiy texnik bazani yaxshilash va xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (2018-yil 26-avgustda PQ-3920-son) bu boradagi ko'pgina masalalarni hal etadigan asosiy hujjat bo'lib, unda madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishni ta'minlash, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha bo'yicha kelajak avlod ongida tushuncha paydo qilish, mamlakatimizning jahon madaniy makoniga integratsiyalashuvini ta'minlash, shuningdek, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan vazifalarni bajarish maqsadida amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar hamda ko'rildigan choralar aniq belgilab berilgan.



Bu islohotlarning zamirida xalqning, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy ongini yuksaltirish, dunyoqarashini yanada rivojlantirish hamda iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, milliy madaniyatimizni asrab avaylash maqsadi yotadi. Hozirgi globalashuv davrida axborot texnologiyalari jadal rivojlanishi natijasida, yoshlar ongiga mustaqillik, yuksak ma'naviy insonparvarlik, an'analarga sadoqat, milliy o'zlikni anglash g'oyalarni chuqur singdirish radikalizm va eksteremestik g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash uchun madaniyatimizni asrash, nafaqat asrash, balki yanada rivojlantirishga hissa qo'shishimiz lozim.

Avvalambor insonning ruhiyatiga bir nazar soladigan bo'lsak, insonlarga nasihat qilishdan ko'ra, shu aytib o'tilgan soha bo'yicha nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalar berish lozim, deb bilaman. Misol tariqasida keng tarqalgan san'at turlaridan biri, teatr san'ati yo'nalishini oladigan bo'lsak, teatr xalqning turmush tarzi



**Baxtiyor SAMIYEV,
"Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish" ta'lim
yo'nalishi 1-bosqich talabasi**

bilan bog'liq turli xildagi tasavvur va qarashlar, orzu-istiklar, urf-odatlar va udumlarni yorqin aks ettiruvchi qadimiy san'at turlaridan ekanligi bizga ma'lum. Asarlar orqali yuzaga kelgan ideal qahramon, el-yurt faravonligi yo'lida inson qalbi va ruhini poklovchi qudrat, ishq yo'lida esa jafolar chekib matonat namunalarni namoyish etish orqali katta-yu kichik tomoshabinning ruhiyatiga ta'sir etadi. Bu esa o'z o'rnida insonni, ayniqsa, kelajak avlodni vatanga, lafzga, sevgiga sodiq, mardlikka tengsiz inson darajasiga ko'tarilishiga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, madaniyat va san'at orqali yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish borasida doimo o'ylashimiz kerakligini, yoshlarimiz esa yaratilip beriladigan shunday imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishi kerak, deb o'layman. Ya'na shuni aytish mumkinki,

yoshlarning ijtimoiy faolligining yuzaga keltiruvchi har bir omil va jarayon (fiziologik, jismoniy, psixologik, ijtimoiy va h.k.) o'zaro hamjihatlikda bo'ladi. Va albatta, yoshlar faolligining eng asosiy sababi, manfaatlar bilan bog'liqdir. Ya'ni, yoshlarning ijtimoiy faol bo'lishi orqali nofaol qatlamdan ko'ra ko'proq natijaga erishishi, o'zini shaxs sifatida shakllangan pallasiga olib kelishi, jamoani boshqara olish ko'nikmasini paydo qilishi, saxovatli bo'lishi, davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalarda rahbarlik lavozimlariда ham bermalol ish yurita olish imkoniyatlarga ega bo'ladi, albatta. Xususan, yoshlarda ijtimoiy faoliy elementlarini qadriyatlarimiz orqali rivojlantirishda xalqimizning ko'p yillik an'analari, madaniyati, urf-odatlari, milliy bayramlari, boy madaniy va qadimiy

merosi o'zining alohida o'rni, ahamiyatiga ega. Yoshlarda milliy iftixor, milliy g'ururni shakllantirish va mustahkamlash asosida ularning ijtimoiy faoliyotlarini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Aqliy zakovat, ruhiy, ma'naviy kamolot, insof-u diyonat, muruvvat, mehr-oqibat bular barchasi ma'rifatli, madaniyatli va ma'naviyatli insonlarning asosiy fazilatlarini sanaladi. Biz ana shu fazilatlar orqali yoshlarimiz ongida milliy madaniyatimizni va qadriyatlarimizni singdirishimiz lozim. Yoshlarni birinchi navbatda shaxs qilib tarbiyalash, dunyoqarashi keng, ilg'or tafakkurli, dunyo standartlari asosida ta'lim oladigan, ongli yashaydigan barkamol insonlar qilib tarbiyalash ana shu siyosatning bosh maqsadidir. Ta'lim-tarbiyaning mushtarak olib borilishi, o'zbekona milliy qadriyatlar, an'analari, marosimlar, urf-odatlar bilan chambarchas holda ular ongiga singdirilishi haqiqiy vatanparvar, millatparvar farzandlarni voyaga yetkazadi.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Teatr san'ati fakulteti "Sahna nutqi" kafedrasi v.b. dotsenti ORIAT Dona radiokanalni boshlovchisi Bahodir Mag'diyev, O'zbekiston jurnalistikasi va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida bo'lib o'tgan "Audiovizual jurnalistikasi va zamonaliviy texnologiyalar: strategiya, tajriba va istiqbollar" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida "Davlat va nodavlat telekanallarda boshlovchilik mahorati: yutuq va kamchiliklar" deb nomlangan ma'ruzasi bilan ishtirok etdi.

"Konferensiyada so'zga chiqqanlarning aksariyatib bugungi kunda jurnalistika sohasi bo'yicha o'qitiladigan oliy bilim dargohlarida, sahna nutqi fanining yo'qligini ta'kidladilar. Sahna bu – joy, makon, teatr degan tushunchalar bilan chambarchas bogliqdir. Yaqinda ORIAT Dono radiosida ishtirok etgan ustoz suxandon, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Nasiba Ibrohimova: "Kelgusida O'zDSMI professor-o'qituvchilari efir nutqi, radio nutqi, dublyaj nutqi bilan bog'liq o'quv qo'llanmalar yaratishsa juda yaxshi ish bo'lardi", – deya kuyinib so'zladi. Menimcha, shu fikri bir o'ylab ko'rish kerak", – deydi Bahodir Mag'diev.

Ogohlik – davr talabi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti inspektori F.Akbarov boshchiligidagi, Mirzo Ulug'bek tumani FVB Katta leytenant A.Ahmedov va tyutorlar ishtirokida, yoz maysumida taqilangan joylarda cho'milish natijasida cho'kib ketish va yong'inlarni oldini olish yuzasidan talabalar o'rtasida profilaktika suhbatlari o'tkazildi.



Muassis:
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir
Ma'rufjon YO'L DOSHEV

Tahrir hay'ati:
Sobirjon JUMAYEV
Hamdan ISMOILOV

Mas'ul kotib:
Ozoda SHOBILOLOVA

Muharrirlar:
Iroda BERDIYEVA
Saida ERGASHEVA

San'atga



baxshida umr

O'zbekiston Badiiy akademiyasining Ikuo Xiroyama madaniyat karvonsaroyida usta naqqosh Hikmatilla Fayziyev va shogirdlarining "San'atga bag'ishlangan umr" nomli ko'rgazmasi tashkil etildi.

Hasan ABDUNAZAROV

Hikmatilla Fayzullayev 1957-yil Toshkentda tug'ilgan. Maktab va bolalar ijod saroyidagi ta'lifdan so'ng, Pavel Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtida, Toshkent teatr va rassomlik institutida tahsil olgan.

Usta o'z shogirdlari bilan birga davlat ahamiyatiga ega ko'plab binolarning bezaklarini ishlagan. Jumladan, Samarqanddagi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov maqbarasida, Jizzax,

Samarqand, Urganch shahridagi muhim inshootlarning interyer bezaklarida, Jizzax viloyat musiqali drama teatri, Toshkent shahridagi To'labe maqbarasi ichki qismi shift va devorlari bezagida, Navro'z bog'i va yana ko'plab obyektlarda Hikmatilla Fayzullayev va shogirdlarining betakror uslubi hamda yuksak mahorati aks etgan.

2019-yilda "Mehnat shuhrati ordeni" bilan taqdirlangan Hikmatilla Fayzullayev hozirgi kunda Respublika ixtisoslashtirilgan san'at mabkab internatida yoshlarga saboq berib kelmoqda.

Suradta Hikmatilla Fayzullayevning ijodiy ishlari



Inson yoshi ulg'aygan sari bolalikni ko'p yodga olar ekan. Bolalik – shirin xotira. Yodga olganing sari mazza qilasan, biroz bo'lsa-da, g'am-tashvishlarni unutasan. Bolalikni qumsab xayol surganing sari, ko'ksingga qadalib turgan hayot toshlari birma-bir to'kilar ekan...

Ozoda SHOBILOLOVA, teatrshunos

Bolalikka qo'l uzataman...
Ammo u olisda... Men tomonga qimir etmaydi... Kulib-jilmayib

qarab turaveradi... Bunchalar yoqimli, bunchalar totli, bunchalar go'zal manzara

bo'lmasa, bolalik!.. Qaniydi, hayot charxi qo'limda bo'lsa-yu, charxni ortga aylantirib, bolalikka qaytib qolsam... Shunday bolalik bo'lsa-ki, hech ham ulg'aymasam...

Bolalikni eslar ekanman, rahmatli buvim va bobom xayolimda tirladi. Ovozi qulog'im ostida jaranglaydi. Ishoning, o'sha manzarada dunyo rohati ustimidam yomg'ir kabi yog'adi.

Bolalikka qaytar ekanman, navqiron yoshdag'i ota-onamni ko'rib dilim yayraydi. Ota-onam xuddi olma-o'rikdek! Bolalikka sayohat qilar ekanman, singlisi va ukasiga g'amxo'r bo'g'irsoq akam, qoshlari tutashgan, sochlari tikka, yerga ursa ko'kka sapchiydigan sho'x, o'yinqaroq ukam qalbimga iliqlik olib kiradi. Shirin entikib qo'yaman. Qaniydi, qaniydi shinniga belangan bolalikni qo'limda tutsam. Kaftimda namoyon bolalikni to'yib-to'yib hidlasam-u, yuzimga surtsam. Bag'rimga qattiq bossam. Hech qayerga qo'yib yubormasam...

*Men bilan yasha bolalik,
Men bilan uxla bolalik.
Tushlarimga kir bolalik,
Dardimni quv bolalik,
Meni qattiq quch bolalik!
Meni shirin ertaklarining bilan
Aldayvergin-aldayvergin
bolalik!*

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

Sahifalovchi:
Abdug'an SODIQOV

www.dsni.uz;
nashriyot@dsni.uz

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi.
O'ichami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Nusxasi – 250 dona. Narxi kelishilgan holda.
Chop etishga 3.06.2023-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta O'zDSMI "Tahririyat va nashriyot" bo'limi kompyuter markazida sahilafandi.